

XALQ OG‘ZAKI IJODIDA GUL VA BULBUL OBRAZI

*Xolboyeva Muslima Usmonjon qizi**O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Xalq og‘zaki ijodida “gul va bulbul” o‘ziga xos xususiyatlari bilan eng muhim obrazlardan biriga aylangan. Ushbu maqolada gul va bulbul obrazining o‘ziga xos xususiyatlari, uning xalq og‘zaki ijodidagi ahamiyati, ishlatilish o‘rinlari va usullari tahlil qilinadi. Dastlab xalq dostonlaridagi , maqol va topishmoqlar so‘ngra xalq qo‘sishlaridagi o‘rni muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: gul, bulbul, oshiq- ma’shuq, doston, maqol, topishmoq, qo‘sish.

Абстрактный. «Цветок и соловей» стал одним из важнейших образов фольклора. В данной статье анализируются особенности образа цветка и соловья, его значение в фольклоре, места и способы его использования. Сначала будет обсуждаться место народных былин, пословиц и загадок, а затем народных песен.

Ключевые слова: цветок, соловей, любовник, былина, пословица, загадка, песня.

Abstract. "The flower and the nightingale" has become one of the most important images in folklore. This article analyzes the characteristics of the image of a flower and a nightingale, its importance in folklore, the places and methods of its use. First, the place of folk epics, proverbs and riddles, and then folk songs will be discussed.

Key words: flower, nightingale, lover, epic, proverb, riddle, song.

Xalq og‘zaki ijodida eng ko‘p tilga olingan obrazlardan biri bu guldir. Chunki yorning jamoli unga qiyos etilgan. Folklorda juda ham ko‘plab gul turlariga murojaat qilingan. Shulardan biri atirguldir. Gul deganda ijodkorlar ko‘p hollarda atirgulni nazarda tutadilar va uni yorga mengzaydilar. Bundan tashqari ibratli kishilarga nisbatan gul yuzli birikmasi ishlatiladi. Chunki u go‘zallik, tozalik, noziklik, shirin iforlik kabi belgilarga ega bo‘lib, bunday xususiyatlar ma’shuqda ham uchraydi. Gullar bilan bog‘liq o‘rinda ovuzlik o‘rnini go‘zallik, sevgi va muhabbat qamrab oladi. Faqatgina so‘lgan gullar bilan bog‘liq o‘rinlarda esa qayg‘u holati ifodalanadi. Demak, ularning ko‘rinishlariga qarab folklorда va adabiyotda turlichayta metaforalar ishlatilgan. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, gul ma’shuq bo‘ib kelgan o‘rinlarda uning yonida, albatta, oshiq bulbul ham bo‘ladi. Lekin gulga ma’lum bir obraz vazifasi yuklanmasdan, u o‘z ma’nosida kelsa, u holda uni o‘zini qo’llashgan. Folklorда ikki holatga ham duch kelish mumkin. Xalq dostonlarida gul va bulbul obrazlari qo’llanib, gul va bulbul birgalikda,

asosan, nasriy qismda ishtirok etadi. “Alpomish” dostonida takrorlanib keluvchi misralar ya’ni epik qoliplarda gul va bulbul birgalikda kelgan o‘rinlari mavjud.

Bir o‘rinda Barchin tomonidan, boshqa o‘rinda Ko‘kaman tomonidan aynan bir xil bayt qo‘llanadi.

*Yana bahor bo ‘lsa ochilar gullar,
Gulni ko ‘rsa , mast bo ‘p sayrar bulbullar.*

Shu o‘rinda , atirgul ayni bahor faslida gullagani uchun ko‘p hollarda uni baahor guli deyishsa, ayrim o‘rinlarda bahorni “atirgul fasli” deya qalamga olishadi.

Yana bir o‘rinda antonim epik qoliplardan biri Alpomish va Kayqubod nutqida, boshqa o‘rinda Surxayl kampir nutqida qo‘llanadi.

*Xazon urmay bog‘da gullar so ‘ldimi? Xazon bo ‘lib bog‘da gullar so ‘lmadi,
So ‘lgan gulga bulbul kelib qo ‘ndimi? So ‘lgan gulga bulbul kelib qo ‘nmadi.*

Bir o‘rinda aynan bir xil baytning savol shakli, boshqa o‘rinda esa bu baytga mutanosib javob shakli kelmoqda. Shu o‘rinda bulbulni so‘lgan gulga kelib qo‘nmasligiga ishora qilinmoqda.

Alpomishning nutqida esa ushbu misralar biroz farq qiladi:

Xazon bo ‘lmay bog‘da gullar so ‘lmadi, Xazon bo ‘lmay bog‘ning gullar so ‘lmaydi,

So ‘lgan gulga bulbul kelib qo ‘nmadi. So ‘lgan gulga bulbul kelib qo ‘nmaydi.

Yana bir o‘rinda Yodgor gulga qiyoslanadi:

*Xazon bo ‘lib, tar ochilgan gulim bor, Xazon qilma tar ochilgan gulimni,
Paydo bo ‘lgan sag ‘ir, Yodgor ulim bor. Yur, borib ko ‘rsatay Yodgor ulingni.*

Yoki qalmoqlarning Barchin oldiga borganlarida, Barchin bog‘da ochilgan gulga, chamandagi bulbulga qiyosalanadi. Aynan shunday qiyoslanish Boybo‘riga Alpomishning kelgani haqida xabar berishganda, Alpomishga nisbatan shunday metafora qo‘llanadi:

*Bog‘da ochilgan guldai bo ‘lib,
Chamanda bulbulday bo ‘lib,
O‘tirib edi suhabat qurib,
Qalmoq bordi, sherday bo ‘lib.*

*Bog‘da ochilgan guling keldi,
Chamanda bulbuling keldi.*

Xalq dostonlarida gul va bulbul birgalikda qo‘llanib, oshiq va ma’shuq ma’nosini, gohida ayni bir qahramon o‘zi uchun ham ishlataladi. “Alpomish dostonida” gul va bulbul oshiq va ma’shuq ma’nosini ham beradi, ko‘p o‘rinlarda Alpomishni, ba’zida esa Barchinni ifodalab kelgan.

O‘zbek xalq maqollarida esa gul va bulbul birgalikda ishlatilgan o‘rinlar mavjud, ammo bunda gul va bulbul oshiq va ma’shuq vazifasini bajarmaydi. Bunda, avvalo, maqollar didaktik badiiyatga egaligi inobatga olinadi. Chunki maqollarda ishq mavzusi deyarli uchramaydi.

Bulbul chamanni sevar, Odam- Vatanni.

Ayrim maqollarda gul va bulbul birgalikda turlicha tasnif etish mumkin bo‘ladi:
Gul qadrini bulbul bilar.

Bu maqol “Zar qadrini zargar bilar” maqoliga sinonim bo‘lib, biron narsaning qadrini bildirishda bundan foydalanishadi. Yoki : “Gulsiz bulbul- yorsiz bulbul” maqolida gulni Vatanga, onaga, do‘stga, ilmga qiyoslash mumkin. “Sevgini aslini bulbuldan so‘ra, gulzor qadrini- guldan” maqolida esa bulbulning oshiqlik sifati qalamga olinsa, gulzor bu Vatan timsolidir. Gulzor gul uchun Vatan bo‘lsa, bulbul uchun ham shunday. Bunda bulbulning gulzorga bo‘lgan sevgisi nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari o‘zbek xalq maqollari ichida “O‘g‘il - uyning bulbuli, qiz – uyning guli”, “Vatansiz inson-kuysiz bulbul”, “O‘zga yurtning gulidan, o‘z yurtingning cho‘li yaxshi”, “Odamning qo‘li gul”, “Kul qoldirma, gul qoldir” kabi maqollarda gul va bulbul obrazlari keyinchalik badiiy adabiyotda turli o‘xshatishlar qo‘llanilishiga turtki bo‘lgan, deyish mumkin.

Xalq og‘zaki ijodida terma qo‘shiqlarda , bulbul oshiqa, gul ma’shuq obrazlarini tasvirlab kelgan.

Bulbul sayramas bo‘ldi,

Gul ochilmas bo‘ldi.

Dushman so‘ziga kirib,

Yorim qaramas bo‘ldi.

Yoki:

Bulbul bo‘lib sayrayman,

Yorimning gulzorida ,

Majnun bo‘lib zorlayman,

Yorimning fig‘onida.

Xalq qo‘shiqlarida bulbulning sinonimi andalib ham qo‘llanilgan.

Ul andalibi shaydo , ochildi guli hamro,

U sarvi qadi ra’no chun nu rayon keldi.

Xulosa qilib aytganda, atirgullar hissiy ahamiyatga ega. U insonning psixologik holatini aks ettiruvchi ramz sifatida ham ishlatalilgan.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Alpomish: O‘zbek xalq qahramonlik dostoni/ Aytuvchi F.Yo‘ldosh o‘g‘li, yozib oluvchi M.Zarifov. – T: ”Sharq”, 2010.
2. O‘zbek xalq maqollari (Tuzuvchilar :T.Mirzayev, A.Musoqulov, B.Sarimsoqov; Mas’ul muharrir:Sh.Turdimov. – T.: ”Sharq”, 2005- 512 b.
3. Nazmi Özerol. BÂKİ’DE GÜL. Adiyaman Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi, Yıl: 5, Sayı: 9, Haziran 2012, s. 145-157.
4. M.Alaviya. O‘zbek xalq ijodi. Oq olma, qizil olma. – T., 1972